

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KABIY
FAOLIYAT SAMRADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK
SHART-SHAROITLARI**

IIV Akademiyasi 3- bosqich kursanti

Safarov Elyor Eshqobil o'g'li



Annotatsiya: Hozirgi kunda yurtimizda davlat tinchligini himoya qiluvchi ichki ishlar organlari xodimlari ular xizmat faoliyatini samradorligin oshirish shuningdek ularni ruhiyatida bo'ladigan o'zgarishalrning ish jarayoniga ta'siri yechimini uning bugungi kundagi dolzarbligi va psixokorreksiyasi.

Kalit so'zlar: hissiy irodaviy holatlar, kasbiy ziyraklik, kasbiy moslashuvchanlik o'zini o'zi boshqarish.

Аннотации: В настоящее время перед сотрудниками органов внутренних дел, охраняющими государственный мир в нашей стране, возникает необходимость повышения эффективности своей служебной деятельности, а также решения проблемы влияния изменений их менталитета на трудовой процесс, его актуальности и психокоррекции в наши дни.

Ключевые слова: Эмоционально-волевые состояния, профессиональный интеллект профессиональная гибкость, самоконтроль

Annotation: Currently, employees of internal affairs bodies who protect the state peace in our country face the need to increase the efficiency of their official activities, as well as to solve the problem of the impact of changes in their mentality on the labor process, its relevance and psychocorrection in our days.

Key words: emotional-volitional states, professional intelligence, professional flexibility, self-control

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatimizda adolat hamda qonun ustuvorligiga erishish ichki ishlar idoralari xodimlari, qolaversa, har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Mamlakatimizda ichki ishlar idoralari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, olijanob, fidoyi, o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan vijdonli xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Chunki bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar idoralari xodimlarining xalq oldidagi nufuzini ko'tarish, unga bo'lgan ishonchini mustahkamlash bevosita ana shu islohotlar samarasiga bog'liq. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi kasb mas'uliyatiga oid quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional kasb va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi mubolag'asiz butun hokimiyatning obro'si, kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi». Shu bois ichki ishlar idoralari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda o'zlariga berilgan vakolatlarni suiste'mol qilmasliklari, aksincha har bir huquq va vakolat ortida xalq hamda davlat oldidagi burch, mas'uliyat turishini to'liq anglab yetishlari zarur. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillar, shuningdek, ushbu faoliyatning psixologik jihatlarini tahlil qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, shu orqali bu faoliyatni takomillashtirishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish davr talabidir. . Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyati jamiyatda mavjud bo'lgan barcha kasblardan, birinchidan, davlat tomonidan qat'iy belgilab berilgan qonunlar, buyruqlar, nizom va yo'riqnomalar asosida ish ko'rishi; ikkinchidan, bevosita jinoyatchilar dunyosi bilan ishlashi; uchinchidan, hayotining doimo xavf-xatar ostida bo'lishi; to'rtinchidan, davlat hokimiyatining vakili sifatida ish ko'rishi

bilan ajralib turadi. Ana shu faoliyat ma'lum psixologik qonunlar, usullar asosida ish ko'rishni talab etadi. Bu esa ichki ishlar idoralari faoliyatida yuz beradigan psixik holat va jarayonlarni alohida – kasbiy psixologiya sifatida o'rganishni taqozo etadi

Asosiy qism

Ichki Ishlar organlari xodimlarini hissiy irodaviy holatining kasb faoliyati samoradorligiga psixologik ta'siri. Hissiy-irodaviy barqarorlikni xodimlarning fuqarolar bilan shaxslar- aro munosabat va kasbiy faoliyatiga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri sifatida qarash mumkin. Hissiy-irodaviy barqarorlik deganda, murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlash uchun qulay bo'lgan psixik holatni saqlash qobiliyati tushuniladi.

Hissiy-irodaviy barqarorlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ekstremal vaziyatlarda xodimda harakatlarining samaradorligini pasaytiruvchi noaniqliklar va adashishlar tug'diruvchi psixologik reaksiyalarning yo'qligi;
- psixologik jihatdan murakkab bo'lgan sharoitlarda kasbiy harakatlarni bexato bajarish mashqini olganlik;
- kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkal, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan oqilona ehtiyotkorlik va diqqatni namoyish etish;
- yuridik ishlarni qat'iy qonuniy yuritishga ta'sir etishga harakat qiladigan shaxslarning ruhiy ta'siriga berilmaslik;
- jinoyatlarning oldini olishga, ularni ochish va tergov qilishga qarshilik ko'rsatuvchi shaxslarga qarshi qattiq psixologik kurash olibborish qobiliyati;
- psixologik jihatdan murakkab, nizoli, ig'vogarona vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining hozirgi sharoitida ular bajaradigan ishning muvaffaqiyati, xodimlar birgalikda bajaradigan mehnatning samaradorligi, jamoadagi psixologik muhit ko'p darajada o'z

harakatlarini boshqara olish, his-tuyg'ularini jilovlay olish, kayfiyatini nazorat qila olish, vaziyatning va atrof-dagilarning talablari bilan hisoblashish qobiliyatiga bog'liq.

Ichki ishlar organlari xodimlari uchun o'zini aniq nazorat qilish, iroda, tezkor qarorlar qabul qilish, xizmat operatsiyalarini, xatti-harakatlarini va his-tuyg'ularini boshqara olish qobiliyati juda zarur.

O'zini boshqarish orqali hissiy asabiylashishni yo'q qilish, qo'rqish va ishonchsizlik hissini tarqatish, diqqatni bir nuqtaga qaratish va butun kuchni qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar etish ichki ishlar organlari xodimining juda muhim xislati ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Xavfli, ba'zan esa hayotga tahdid soluvchi vaziyatlarda tez-tez bo'lishshaxslardan o'zini tuta olishni, murakkab vaziyatni tez baholash va eng maqbul qarorlarga kelish qobiliyatini talab etadi, bu esa qo'yilgan vazifani samaraliroq bajarishga hamda ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi orasida favqulodda hodisalar va kasbiy faoliyatning bajarilmay qolmasligiga yordam beradi.

O'z ruhiyatini boshqarishning mohiyati shundaki, inson o'zining ruhiy holatiga va butun organizmiga ta'sir ko'rsatish uchun atrof-muhit bilan muloqotda bo'lish va o'z organizmini bilish jarayonida to'planadigan his-tuyg'ularini muntazam mashqlar predmetiga (mavzuiga) aylantiradi. Umuman, har bir sog'lom, mehnatga qobiliyatli xodim o'zini o'zi boshqarish usullarini egallashi mumkin. Ammo bunda hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi bir qator omillar mavjud ekanligini inobatga olish zarur. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– *xodimning mazkur mashqlarni bajarishga munosabati* (uning ichki tayyorligi) haddan tashqari o'ziga ishonish muvaffaqiyatga erishishga yordam bermaydi. Istakning o'zi natija bermaydi: muntazam ishlash, sabr-toqat, iroda zarur;

– *mashqlarning dastlabki bosqichida erishilgan muvaffaqiyat* mashq qiluvchini uning mashg'ulotlarga munosabatida noto'g'ri yo'nalish berishi,

o'ziga ortiqcha ishonishiga va qiyinchiliklarni yenga olmaydigan bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin;

– *o'zini mashq qildirishning yomon sharoitlari.* Xalaqit beruvchi tashqi omillarni yo'q qiluvchi, o'zni bo'sh qo'yishga yordam beruvchi xotirjam sharoit yaratish kerak. Ruhiy boshqaruv usullarini egallab borgan sari xizmat faoliyatining haqiqiy sharoitlarida mashq qilishga o'tish mumkin;

o'zini o'zi boshqarish usulini noto'g'ri tanlash. Xodimning individual xususiyatlariga mos kelmaydigan boshqarish usullarni tanlanishi ruhiyatida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, shu bois boshqaruv mashqlarini katta ehtiyotkorlik bilan, ularning samaradorligini doimiy nazorat qilgan holda tanlashi kerak. Umuman, har bir sog'lom, mehnatga qobiliyatli xodim o'zini o'zi boshqarish usullarini egallashi mumkin. Ammo bunda hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi bir qator omillar mavjud ekanligini inobatga olish zarur. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– *xodimning mazkur mashqlarni bajarishga munosabati* (uning ichki tayyorligi) haddan tashqari o'ziga ishonish muvaffaqiyatga erishishga yordam bermaydi. Istakning o'zi natija bermaydi: muntazam ishlash, sabr-toqat, iroda zarur;

– *mashqlarning dastlabki bosqichida erishilgan muvaffaqiyat* mashq qiluvchini uning mashg'ulotlarga munosabatida noto'g'ri yo'nalish berishi, o'ziga ortiqcha ishonishiga va qiyinchiliklarni yenga olmaydigan bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin;

– *o'zini mashq qildirishning yomon sharoitlari.* Xalaqit beruvchi tashqi omillarni yo'q qiluvchi, o'zni bo'sh qo'yishga yordam beruvchi xotirjam sharoit yaratish kerak. Ruhiy boshqaruv usullarini egallab borgan sari xizmat faoliyatining haqiqiy sharoitlarida mashq qilishga o'tish mumkin;

o'zini o'zi boshqarish usulini noto'g'ri tanlash. Xodimning individual xususiyatlariga mos kelmaydigan boshqarish usullarni tanlanishi ruhiyatida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, shu bois boshqaruv mashqlarini katta

ehtiyotkorlik bilan, ularning samaradorligini doimiy nazorat qilgan holda tanlashi kerak.

Umuman, har bir sogʻlom, mehnatga qobiliyatli xodim oʻzini oʻzi boshqarish usullarini egallashi mumkin. Ammo bunda hissiy-irodaviy oʻzini oʻzi boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi bir qator omillar mavjud ekanligini inobatga olish zarur. Ular orasida quyidagilarni ajratib koʻrsatish mumkin:

– *xodimning mazkur mashqlarni bajarishga munosabati* (uning ichki tayyorligi) haddan tashqari oʻziga ishonish muvaffaqiyatga erishishga yordam bermaydi. Istakning oʻzi natija bermaydi: muntazam ishlash, sabr-toqat, iroda zarur;

– *mashqlarning dastlabki bosqichida erishilgan muvaffaqiyat* mashq qiluvchini uning mashgʻulotlarga munosabatida notoʻgʻri yoʻnalish berishi, oʻziga ortiqcha ishonishiga va qiyinchiliklarni yenga olmaydigan boʻlib qolishiga olib kelishi mumkin;

– *oʻzini mashq qildirishning yomon sharoitlari*. Xalaqit beruvchi tashqi omillarni yoʻq qiluvchi, oʻzni boʻsh qoʻyishga yordam beruvchi xotirjam sharoit yaratish kerak. Ruhiy boshqaruv usullarini egallab borgan sari xizmat faoliyatining haqiqiy sharoitlarida mashq qilishga oʻtish mumkin;

XULOSA.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki xodimlarni psixologik bilimlarni oshirish ularni kasbiy samardorligi boʻyicha bilimlar berish amaliy tajrib orqali ularni moslashtirish hissiy irodaviy holatlarini takomillashtirish shuningdek yangi oʻzbekiston uchun professional kadrlarni yetkazib berishdan iborat hisoblanadi. Psixologik tomondan qanday yordam koʻrsatsa boʻladi degan fikrlarga shuni aytib oʻtamiz ularni ish taqsimoti tartiblash rejalar tuzishga oʻrgatish oilaviy muaomolarini oʻrganish ularga yordam berish kabi tomonni psixologiya oʻz ichiga qamrab oladi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyati oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki ular doimiy ravishda turli toifadagi odamlar bilan uchrashadilar, muloqotga kirishadilar. Bu esa

xodimdan kasbiy psixologiya fanini, jumladan ichki ishlar idoralari faoliyatida yuz beradigan psixik holat va jarayonlarni yaxshi bilishni, ularga qarshi doimo tayyor turishni talab qiladi. Ichki ishlar idoralari xodimi fuqarolarning xavfsizligi, tinchligi, haq-huquqi va erkinliklarini ta'minlashga mas'ul bo'lgan davlat xizmatchisi hisoblanadi. Ana shu mas'uliyat xodimdan birinchi navbatda o'z kasbining bilimdoni, ustasi bo'lishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi
2. Ijtimoiy psixalogiya
3. Pedagogik psixalogiya
4. Muloqat psixalogiyasi
5. Kasbiy psixalogiya.